



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

PARKENT TUMANI FOLKLORI NAMUNALARI TAHLILI

ANALYSIS OF FOLKLORE EXAMPLES FROM PARKENT DISTRICT

Mohidil RAJAMATOVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/QQTP7696

Annotation. *The article discusses the analysis of wedding ceremony folklore, specifically wedding samples, in the Parkent district.*

Key words: *Familiy ceremony, wedding ceremony, yor-yor, kelinsalom, magical numbers, symbols.*

O'zbek marosim folklori materiallari ham o'zining barqaror hamda an'anaviy xarakteri bilan ajralib turadi. Bu sohadagi mavjud materiallar mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlar folklori janrlarini o'z ichiga oladi. Biroq o'zbek folklorshunosligida bu ikki turkum marosimlar folklori mutloqo tadqiq etilmagan.

Marosim inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan, tabiiy xatti-harakatga ega bo'lgan sahna asaridir. U muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi [Sarimsoqov 1986; 9].

Oilaviy marosimlar. Inson hayoti uning tug'ilishidan to intihosigacha turli-tuman marosim va urf-odatlar asosiga qurilgan. Inson oilaviy marosim an'alarining uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. To'y marosimi folklori. O'zbek nikoh to'ylari ham o'zlarining tashkiliy qismlaridan boshlab nihoyasiga yetguncha, bir qator bosqichlardan o'tadi.

To'ygacha bo'ladigan urf-odatlar. Parkent tumanida ham ota-bobolarimizdan qolgan bir qancha udumlar bor. Har bir oilada farzand tug'ilgandan keyin unga yoshligidan boshlab biror narsa atab, yig'ib borishadi. Turmush qurish yoshiga yetgandan so'ng ularning qarindosh-urug'lari, ota-onasi qiz yoki bolani ko'rib ko'z ostiga olib qo'yadi. Keyinchalik esa, ularning ota-onasi, qarindoshi, nasl-nasabini surishtiradi.

Qizning uyiga sovchilikka borishadi, sovchilikka borganda birinchi kuni kuyovning onasi bilan biror yaqin qarindoshi non, shirinlik olib borishadi. Qizning uyiga kelganda "Qudachilikka keldik"deb uyga kirishadi. Odatdagidek dasturxon yozilib, xol-ahvol so'raganlaridan keyin maqsadlarini aytishadi. Birinchi kunni o'zida ularga ha yoki yo'q degan javob berilmasdan, maslahatlashib ko'rib javobini aytamiz deyiladi. Olib kelgan narsalari olinmasdan qaytariladi. Hamma rozi bo'lgandan keyin asosiy sovchilarning kelishi aytiladi [Ismoilov 1992; 101].

Non sindirish – oila qurish ostonasida turgan ikki yoshning hayoti dastalab non bilan bog'lanadi. Musulmon dunyosida aziz sanalgan non kelin-kuyovning boshlamoqchi bo'lgan hayotining to'kis bo'lishi, ularning rizq-nasibali bo'lishini ifoda etishi bilan birga, unashtirilganlikning haqiqat ekanligini asoslovchi dalil hamdir. Ikkita nonni qo'shib sindirishda ham ma'no bor. Bu bo'lajak kelin-kuyovning qo'sha qarib yurishiga ishoradir [Davlatov 2018; 62].

Non – rizq-nasiba, qut-baraka, orzu-umid, ishonch, sog'lik, balo-qazoni arituvchi kabi bir qancha ijobiy ma'no-mazmun kasb etadi. Ya'ni unda kuyovning onasi, otasi,

amakisi yoki tog'asi kelishadi. Ular olib kelgan narsalar olib qolinadi, sababi bu rozilik belgisidir. Oradan bir necha kun o'tgandan keyin ikki taraf maslahatlashib kichik fotiha o'tkazishadi. Unda ham o'n kishi qatnashadi. Kuyov taraf osh damlab, shirinlik, patir olib kelib non sindiradi.

Bular o'tkazilgandan so'ng uch kunlik olib kelinadi. Unda esa kuyov tarafdan uch kishi, qiz tarafdan oila a'zolari qatnashadi. Kuyov tarafdan biror bir taom olib kelinadi. Uch kunlikda xarajatga borib kiyim qilish kuni belgilanadi.

Payshanbalik. Ikki tomon kelishib olganlaridan keyin har payshanba kunlari kelin tarafga "Payshanbalik jo'natiladi. Ayniqsa, hayit kunlari "Hayitlik" ham olib kelingan. Uch kunlikdan keyin esa haftalik olinadi. Unda oshning qurug'i beriladi, ya'ni kuyov taraf oshga ketadigan masaliqlarni hammasini olib keladi.

Haftalik bu yetti raqamini ifodalaydi. M. Jo'rayevning fikricha, folklorda yeti raqami magik raqam sifatida an'anaviylashuvi ajdodlarimiz tabiatidagi ibtidoiy qarashlarga borib taqaladi. Bu raqam ostida O'rta Osiyoda yashagan turkiy elatlar mifologiyasida tabiatni mifologik anglash va ajdodlar kulti haqidagi qarashlar birlashib ketgan [Jo'rayev 1986; 108]. Xalqimizning og'zaki ijodida, urf-odat va marosimlarida yetti raqamiga bu qadar ehtirom bilan munosabatda bo'lishining sababi, bu son ajdodlarimiz tasavvurida omad va muvaffaqiyat belgisi, baxt va ezgulik ramzi sifatida ifodalangan.

"Ma'lum oshi" o'tkazilgach, qiz bolaning "boshi bog'langan" ya'ni unashtirilgan deb hisoblaydi. Bu orqali boshqalarga qizning unashtirilgani ma'lum qilinadi. Biror sana belgilangandan keyin barcha qarindosh-urug' qo'ni-qo'shnilar aytiladi. Kuyov tarafdan ham bir necha kishi 15 kg osh, 100 ta non, 22 xil meva, paxta va kelinning sarpolarini olib kelishadi. El-yurtga osh berilgandan keyin kelinning sarpolari yoyiladi va hammaga ko'satiladi. Kuyov taraf kelin tarafga qalin puli berishadi. Qalin puli kelinning ota-onasiga to'y xarajatlari uchun beriladi. Kuyov tarafdan kelgan idishlarga ham kuyovning kiyimlari solib qaytariladi.

Uch kundan keyin yana qiz tarafga uch kunlik olib kelinadi, bunda to'y kunini belgilashadi. Belgilangandan keyin qiz taraf kuyovnikka uy ko'rishga boradi. Uy ko'rishga borganda biror bir taom va kuyovga sarpo olib borishadi.

Ko'rpa solar – to'ygacha o'tkaziladigan marosim bo'lib, bunda kuyov tomondan kelingan toy paxta, ko'rpalik matolar jo'natiladi. Fotiha to'yidan keyin kuyov tomondan vakillar, kelinning yaqin qarindoshlari, qo'ni-qo'shnilar va tikuvchi ayollar kelinni uyiga yig'ilishadi. Birinchi bo'lib yoshi ulug' onaxon tomonidan matoga qaychi uriladi. Dastlab kelin-kuyov uchun maxsus tayyorlangan quroq ko'rpaga paxta solinadi. Keyin navbat bilan ko'rpalarga paxta solinib tayyorlari tikiladi.

Ko'rpa tikayotgan, qaviyotgan ayollar albatta tahorat olib, poklangach ishga kirishadilar. Imkon qadar ishning chalkashmasligi, qavish yo'lining tekis bo'lishiga e'tibor qaratishgan. Bu holatlar ham yangi qurilayotgan oila hayotida chigalliklar, kelishmovchiliklar chiqaradi deb o'ylashgan.

"Uy ko'rish" kelin tarafdan ammasi va tikuvchi ayol kuyovning uyiga uy ko'rishga borishadi. O'zlari bilan birga kuyovga sarpo, patir va ovqat olib borishadi. Kuyov tarafning kelinga bergan uyini ko'rib nimalar ketishini ko'rib kelishadi.

To'ydan oldin "Hadim" tushiradi. Undan so'ng kelinning barcha yuklari to'ydan oldin kuyovning uyiga jo'natiladi.

Maslahatoshi – to'ydan oldin o'tkaziladi. To'yi bo'ladigan xonadonga yaqin qarindoshlar yig'iladi. Kelin taraf bilan kuyov taraf kelishilgan holda oshni qurug'i yoki tayyor holatini olishga kelishadi. Qurug'ini olsa kuyov taraf barcha osh masaliqlarini olib keladi.

Sabzi to‘g‘rash–barcha erkak kishilar qiz tarafga sabzi to‘g‘rash uchun kelishadi. Dasturxon tuzatilib, osh damlanadi. Bunda shovla tayyorlanadi. Yig‘ilganlar ertangi to‘yni kamchiliklarsiz o‘tkazish rejasini tuzadilar, mas’ullarga vazifalar yuklatiladi.

To‘y boshlagan oilaga eng yaqin, ishonchli kishi mas’ul etib tayillanadi. Bu kishi barcha oziq-ovqat mahsulotlariga egalik qilib, teng taqsimlanishi bilan shug‘ullanadi. Oshpaz, sozandalarni rozi qilish, keldi-ketdilarini nazorati ham shu insonning zimmasida bo‘ladi va barcha xizmatchilar unga bo‘ysunadi.

Xonadon egalari ertangi to‘y masalliqklarini oldindan tayyorlab qo‘yishadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqining ko‘pgina to‘ylarida asosiy taom palov hisoblanadi. Oshga mo‘ljallangan sabzilarni (o‘rtacha to‘yga 200 kg, ko‘p mehmonli katta to‘ylarga 500 kgi sabzi to‘g‘raladi) to‘g‘rash uchun o‘n kishiga yaqin epchil yigitlar kelishadi. Osh damlanib, dasturxon yoziladi. Ziyofatdan keyin ertangi to‘y yaxshi o‘tishi uchun niyat qilinib, duo qilinadi va sabzi to‘g‘rash jarayoni boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: 1986. – 9 b.
2. Ismoilov H. O‘zbek to‘ylari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 101 b.
3. Davlatov S. O‘zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. – Toshkent: 2018. – 62 b.
4. Jo‘rayev M. Raqamlarda yashiringan olam. – Toshkent: 1986. – 108 b.
5. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010. – 140 b.